

SADRIDDIN AYNIY ASARLARIDA BUXORO AMIRLIGI IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI TASVIRI

ИЗОБРАЖЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ САДРИДДИНА АЙНИ.

THE DEPICTION OF THE SOCIO-ECONOMIC LIFE OF THE BUKHARA EMIRATE IN THE WORKS OF SADRIDDIN AINI.

Hikmatullayev Sherzod Hikmatullayevich

NavDPI “Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o’qitish metodikasi (Tarix)” magistranti

E-mail: sherzodhikmatullayev4@gmail.com

Tel: 973778899

ORCID 0009-0003-4015-1081

Хикматуллайев Шерзод Хикматуллайевич

магистрант Навоийского

государственного педагогического института

Hikmatullayev Sherzod Hikmatullayevich

undergraduate student

of the Navoi State Pedagogical Institute

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro amirligi va O’zbekiston SSR shoiri va yozuvchisi, ulkan adib, jadid Sadriddin Ayniyning asarlari orqali Buxoro amirligining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tasvirlab berilgan. Bilamizki, Sadriddin Ayniy Buxoro amirligidagi jadidlar rahnamolaridan biri sanalgan va u o’sha davr xalq hayotidagi ulkan o’zgarishlarga umid bog’lagan edi. Uning asralarida xalqning o’g’ir ahvoli va xalqning qiyinchiliklari mahorat bilan yoritilib, amirlikning iqtisodiy va ijtimoiy holatini ko’rsatib bergen.

Kalit so‘zlar: Buxoro, G’ijduvon, Amir Olimxon, Estaliklar, , kafsan, dorug’ayi muzd, xiroj, zakot.

Аннотация. В этой статье описывается социально-экономическая жизнь Бухарского эмирата и Узбекской ССР через произведения поэта и писателя, великого писателя, Джадида Садриддина Айни. Мы знаем, что Садриддин Айни считался одним из лидеров джадидов в Бухарском эмирете, и он надеялся на огромные перемены в жизни народа того времени. В его веках воровское положение народа и невзгоды народа мастерски освещались, показывая экономическое и социальное положение эмирата.

Ключевые слова: Бухара, Гиждуван, Амир Олимхан, Эсталиклар, , кафсан, доругаи Найд, хирадж, закят.

Abstract. This article describes the socio-economic life of the Bukhara Emirate and the Uzbek SSR through the works of the poet and writer, the great writer, Jadid Sadriddin Aini. We know that Sadriddin Aini was considered one of the leaders of the Jadids in the Bukhara Emirate, and he hoped for huge changes in the life of the people of that time. In his centuries, the thievery of the people and the hardships of the people of the workshops were illuminated, showing the economic and social situation of the emirate.

Keywords: Bukhara, Gijduvan, Amir Olimkhan, Estaliklar, kafsan, dorugai Naid, hiraj, zakat.

Kirish

Har qanday mamlakat uchun iqtisodiyot masalasi hamma zamonlarda ham muhim hisoblangan. Prezident Sh.M. Mirziyoevning iqtisodiy masala xususida quyidagi so'zlarni keltirib o'tgan: „Barchamiz so‘zsiz tushunamiz, itisodiy islohotlar va ijtimoiy o‘zgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish eng avvalo iqtisodiy va moliyaviy organlarning faoliyati samaradorligiga bog‘liqdir.” [1]

Buxoro amirligining iqtisodiy ahvoli XIX asr oxiriga kelib, yaxshi tashkil qilinmagan. Davlat juda boy emas edi, ammo davlatning holatidan ham aholining iqtisodiy ahvoli juda og‘ir edi. Bunga iqtisodiy tuzilma sabab: Birinchidan davlatning mablag‘i mavjud emas, hamma pul amirniki, ikkinchidan, amir bu pullarni o‘zining shaxsiy va merosiy, undan ham battari muqaddas mulki deb hisoblardi. Uchinchidan, davlat amallarining ko‘philigiga maosh belgilanmagan, bu esa nafaqat iqtisodiy hayotga balki siyosiy hayotga ham yomon ta’sir qilib porxo‘rlik, ta’magirlik va shunga o‘xhash illatlarning avj olishiga olib keldi. Bu aholining dunyoqarashiga ham ta’sir qildi. To’rtinchidan, pulning xazinada o‘lik holda saqlanishi, bu aholi yaratgan va azaldan yig‘ilgan mablag‘ni samarasiz qilib qo‘ydi va ularning bor yoki yo‘qligi hech narsani bildirmasdi. Faqat amirning ko‘ngli xotirjam va o‘zini boy deb hisoblashi uchun asos vazifasini o’tardi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Sadriddin Ayniy hayotligidayoq G’arb va Sharq mamlakatlarida tanilgan hamda bu kishining hayot faoliyati o‘zimizda va jahon miyosida keng o‘rganilgan, jumladan, chexiyalik doktor Manfred Lorents, eronlik professor Sayid Nafisiy, yaponiyalik Shimada Shizuo va Sharifa Tosheva, “Sadriddin Ayniy: Buxoro inqilobining tarixi”, afg’onistonlik adib Sarvari Go’yo, rossiyalik professor A. Boldo’revlar, I.S.Braginskiy “Проблемы творчество Садриддина Айни”, “Жизн и творчество Садриддина Айни” Ch. Aytmatov, R.Xashim, Ferdinand Dyushin, L.Aragon, B.G.Gofurov, J.Rasulov, A.N.Samoylivech, I.I. Umnyakov, I.Krachkovskiy, V.Struve, A.N.Samoylivich, A.R.Qayumov, filologiya fanlari nomzodi M. Hasanov “Ayniy zamondoshlari xotirasida” professor A.Xabutdinov, J.Ikromiy, O.Tog’ayev,

Ch. Azizqulov, Z. Mullochonova, N.Fayzulloev, M. S. Asimov ham, mashhur darg'alarimiz Abdulla Qahhor, Abdulla Qodiriy, G'ofur G'ulom, Oybek, Komil Yashin, Mirzo Tursunzoda, Yahyo Yo'ldoshev va Zulfiyaxonimlar ham ustod Ayniy deb ardoqlagan va etirof etgan ulug' siymo edi.

Maqolani yoritishda dialektik metodga tayandik. Sadriddin Ayniyning hayoti va faoliyati tarixiy manbalar asosida o'r ganilib, xolisiylik nuqtai nazaridan yoritildi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tariximizni bugungi kun nuqtai nazardan o'r ganish, yaratish orqali tarixiy xotirani tiklash, milliy madaniyatni rivojlantirish, an'anaviy qadriyatlar tizimini tadqiq va targ'ib etish borasidagi konseptual nazariy mulohazalari maqolaning metodologik asosini tashkil etadi.

Muhokama

Buxoro amirligida Olimxon davrida quyidagi bekliklar mavjud edi. Bular: Nurato, Qorako'l, Qabqoli, Chorjo'y, Karki, Burdolik, Kalif, Shahrisabz, Yakkabog', Kitob, Qorategin, Boysun, Hisor, Dehnov, Qo'rg'ontep, Baljuvon, Ko'lob, Qobadiyon, Darvoz, Ruvshon, Karmana, Xatirchi, Chiroqchi, G'uzor, Sharobod, Qarshi, Norazm. [2]

Buxoro amirligining iqtisodiy xo'jalik hayotini tasvirlashda Sadriddin Ayniynig quyidagi xotiralariga e'tiborni qarataylik: "Amir miroblarni suv sotishda, dehqonlarning haqiga xiyonat qilishda ayblardi. Biroq shunisi ham borki miroblarning belgili maoshi yo'q edi, binobarin, yashash uchun u ham suv sotishga majbur edi". [3] Bundan ko'rinadiki tizimning o'zi adolatsizlikni yuzaga keltiradigan qilib tuzilgan. Tabiiy ehtiyojlar sabab mirob adolatli ishlashi mumkin emas. Bundan tashqari mirobboshi har yili amir va saroy ahliga sovg'a salom olib borishi yoki yuborishi kerak. Amirlikdagi har bir amaldor vaqt vaqt bilan amir va saroy ahliga sovg'a-salom yuborishi kerak bo'lib, bu ish bilan u o'z lavozimini saqlab qolardi. Bunday holat shu darajaga yetgandiki poraxo'rlik, iqtisodiy nayranglar odatiy tusga aylandi. Bu odatiy tusga kirganligini S.Ayniy o'z esdaliklarida bir voqe, ya'ni madrasa ta'miri jarayonidagi holat yuzasidan eslab o'tadi "... men bir mardikordan mutavalli uni kuniga necha pulga baylashib, olib kelganini so'radim. U bunday dedi: Biz o'n kishining har birimizga kuniga bir tanga (o'n besh tiyin) berish sharti bilan olib keldi. Holbuki mutavalli xarajatlar ro'yhatiga mardikorlarning ish haqini kuniga ikki tanga (o'ttiz tiyin) dan jami 20 tanga (uch so'm) yozdirardi. [4]

Iqtisodiy hayotda sudxo'rlik ham avjiga chiqqan. Sudxo'rlik bilan asosan Buxoro atrofida yashovchi hindlar shug'ullangan. Ularning faoliyatini S.Ayniy tasvirlari orqali quyidagilarni yoritish mumkin. "Ular shahar va qishloqlarning qashshoq va bechoralariga ko'p qarz berardilar. CHunki boshqa joydan qarz olishi mumukin bo'lgan kishilar ularga murojaat qilmasdi. Ularning qarzdorlari aksari amir

sarbozlari bo‘lardi. Bular o‘n tangadan yigirma tangagacha qarz olib bu mablag‘ni haftalarga taqsimlab, bir yohud ikki oyda ikki baravar ko‘paytirib berardilar.” [5]

Hindlar qarz berishda o‘zlarining qarz berish usulidan foydalanishgan. Bu haqida ham S.Ayniy quyidagilarni yoritib o’tgan: “Hindilarning qarz berish tartibi mana bunday bo‘lardi: masalan, bir muhtoj yigirma tanga qarz olmoqchi bo‘lsada hindilar bu mablag‘ni ikki oyda qaytarib berish sharti bilan o‘n tanga foydasiga berar va xatcho‘pga o‘ttiz tanga yozardilar. Qarzdor haftada shu qarzning bir qismini puldorga qaytarib berishga majbur edi.” [6]

Buxoro amirligi hududida vabo tarqalgan vaqtida amir kasallanganlarni majburiy kasalxonaga yetkazish haqida farmon beradi. Amirning odamlari shahar ko‘chalarida kasalga o‘xshagan odamlarni tutib ketaverishadi: “Holbuki, Buxoro xalqining ko‘pchiligi rangi siniq odamlar edi” [7] (vabo vaqt shu pand berib aholi kop’chaga chiqmay qo‘ydi) S.Ayniyning bu so‘zlari Buxoro aholisining moddiy ahvolini tasavvur qilish imkonini beradi. Aholining aksariyat qismi kambag’allikda hayot kechirgan. Mamlakat iqtisodiy ahvolini baholashning yana bir yo‘li aholi mehnatiga oladigan haq bilan ham belgilanadi. S.Ayniyga bir savdogarga hisob kitob ishlarida yordam berishi masalasidagi kelishivi haqida quyidagilarni eslab o’tadi. Bunda savdogarning yozuvchiga taklifi e’tiborga molikdir: “Bir soatlik ish vaqtingiz badaliga bizning uyda kechki ovqat eb keting, boshqa narsa talab qilmang. Nima deysiz maqulmi yoki yo‘q” [8]

Iqtisodiy rivojlanish darajasi hali zamondan ancha orqada ekanligi bir ustanning xo‘jayin bilan ish haqini olish vaqtidagi suhbatidan ma’lum bo‘ladi. Bu vaqtida S.Ayniy hisob-kitobda yordam berayotgan edi

“- Usta Murod siz bu haftada necha juft mardona kovush chiqardingiz - Besh juft” [9] Bir haftalik mehnat mahsuli juda kam. Hatto manufakturna tizimidan foydalilmagan.Yuqorida so‘zlar chilangarlik korxonasidan esdalik. Ko‘rinib turibdiki hali ham mehnat taqsimoti shakllanmagan. Mahsulotning boshidan oxirigacha bir kishi tayyorlaydi. Samaradorlik esa juda past: Bir haftada besh juft poyabzal. Bunday mehnat evaziga yaxshi hayotni tasavvur qilishga esa ustaning ham haqqi yo‘q albatta.

O‘rganilayotgan davrda ishlab chiarish to’laligicha eski shaklda emas edi. Buxoro amirligida savdo-sotiq birmuncha rivojlangan. “XIX asrning oxirida Buxoro amirligi Rossiya, Afg’oniston, Hindiston, eron va Kavkaz bilan savdo aloqalariga ega bo‘lgan. Buxoro, Chorjo‘y, Karki, Termiz va Kogon (Yangi Buxoro)da Rossiya firmalariningidora va omborxonalari mayjud edi.” [10] Bu davrda Rossiya kapitali Buxoro amirligi huddiga tez sur’atlarda kirib kelayotgandi. Asosiy talabga ega bo‘lgan sohalar ancha ilgarilagan edi. Sadriddin Ayniyning ba’zi ma’lumotlari bunga misol bo‘ladi. ”Qiziltepadagi paxta tozalash zavodi Buxorolik bir boyning zavodi bo‘lib, unda zavod xo‘jayinining paxtasi va “chistachi” (paxta jalloblari) larning paxtasi

tozlanar edi. Unda ishlovchilar ruslar, mahalliy millat kishilari barbarlar va pirsyonlar bo‘lib, jami taxminan 150 kishi edi.” [11]

“Qarshida to‘quvchilik hunari hiyla rivojlangan edi. Dastkorlik korxonalari ko‘p edi, unday korxonalarning har birida yuztaga yaqin xalifa, shogird va to‘quvchi ishlar edi.” [12]

Buxoro amirligida iqtisodiy ong hammada ham zaif emas edi. Sadriddin Ayniy bir boyning gaplarini mulla Rahmat sartarosh orqali eshitganlarini esdaliklarida keltirib o’tadi: ” Men ilgari Jalliko‘l, Saroy Kamar, Termiz va Karkida arzon baho teri va paxta tayyorlab, ularga yuqori narx qo‘yib, o‘sha narx ustidan, yo‘l kiradan tashqari straxovanie haqi ham to‘lab, shu kontaraga topshirardim. Kontora bu mollarni mazkur joylardan turkmanlarning qayig‘iga solib, Chorjo‘yga yuborardi. Turkman qayiqchilari orasida mening odamlarim bo‘lib, ular Amudaryoning munosibroq joyida qayiqni g‘arq qilardilar. Men esa CHojo‘yda turib g‘arq bo‘lgan past mollarimga yuqori baho bilan haq olardim. Bu ish takrorlanavergach kontora mening mollarimni Amudaryoda straxovaniega olmasligini aytib, mollarni chorjo‘yda qabul qilib Kaspiy dengizi va temiryo‘l orqali Rossiyaga etkazib berishini aytdi. Binobarin men bu yerda ham straxovaniedan yashirinchha foydalanishni tashkil qildim...

... Hamma gap mana shu ho‘llab, so‘ngra quritishda,-dedi hamsuhbatim va izoh bera boshladи.,- saroy sahnidagi toy paxtalarning hammasi menga 15500 so‘mga tushgan edi. Qaynoq suv quyilgandan keyin ularning vazni ming so‘mlik oshdi. Quruq paxta qaynoq suvni bamisolı oftobda yotgan kesakdek o‘ziga tortadi. Garchi bu paxtani yana oftobda quritgan bo‘lsak ham, paxtaning mag‘ziga singan nam qola beradi, faqat unga o‘ralgan qanor bilanuni o‘rab turgan simlargina quriydi, qaraganda quruqdek ko‘rinadi. Bu shunchaki yuzki ko‘rinish bo‘lib, kontorodagi odamlarning ko‘zlarini bog‘lash uchun qilinadi.

... Bu paxtalar Moskvaga yetguncha qurib, o‘z vazniga tushib qoladi.

Faqat olib sotish orqali kishi boy bo‘lsa ham, lekin katta boy bo‘lolmaydi”[13]. To’g’ri buni tadbirkorlik deb ham aytish qiyin, ammo boy bu nayrangi orqali ma’lum iqtisodiy bilimlarga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Shayx ikki tomonlama, xususan nazr olishdan katta pul to‘plagach, chilangarlik korxonasi qurish fikriga tushib qoladi. Shu niyat bilan do‘konchani buzib qaytadan quradi. Qayta qurganda hovlisini Registonning katta yo‘li baravarida chuqr qilib kovlaydi, atrofini pishiq g‘oisht bilan devor qiladi. Bu keng, er osti uylarning o‘rtasiga yo‘g‘on qayrrag‘och ustunlar qo‘yib tepasini yopadi. Shu yer osti uyni korxonaga moslashtiradi. Bu er osti uylarning tepasini ikkiga bo‘lib, yarmini ichkari hovli, qolgan yarmini chillaxona va ibodat qiladigan joyga aylantiradi. Shu tariqa shayx do‘kon dastgohsiz chilangarlarni o‘z tuzog‘iga ilintirib korxonasini rivojlantiradi. Registon yo‘lida do‘koncha ohib mustaqil ishlab yurgan chilangarlar

ham bora-bora serdastmoya shayx bilan raqobat qilolmay, ular ham shayxning ishchilariga aylanib, unga ishbay tartibida ishlaydigan bo‘ldilar[14]

Buxoroda mana shunaqa boylarning korxonalarida ishlaydigan oddiy usta-hunarmandlarni “devonabachcha” deyishardi. Ular faoliyati davomida xo‘jayinga qaramligi oshib boraverardi. Bunga sabab ish haqining pastligi va ishchilarning hayot uchun boy-xo‘jayindan qarz bo‘lib qolishi edi. Qarz kundan-kunga oshib boravergan, qarz oshgani sari ish haqi- simkor kamaytirilib borilgan. S.Ayniy ham shunday boylardan biriga bir safar ish haqi to’lash jarayonida ishtirok etganini yozib qoldirgan: ... Bir chorshanba oqshomi xo‘jayn menga bunday dedi:

_Ertaga payshanba kuni peshin vaqtida keling, men do‘kondan kelaman bu erda bir soatlik ishimoiz bor. Devonabachchalarga simkor (ish haqi) berish kerak. Men bularning qaysisi bilan hisoblashib pul bersam siz o‘shani darrov daftarga yopzasiz. Bularning hisobi shunday chalkashki ularni xotirada saqlab, kechqurun yozish mumkin emas. Bu bir soatlik ish albatta siz bilan bizning oramizdagi qarorda yo‘q edi. Bu ish sizning bo‘yningizga sarbobi (nagruzka) bo‘ladi. O‘zingizga ma’lumki bozordan yuzta qovun sotib olinsa “partav” deb ikki dona qovunni ortiq berishadi. Bu ortiqcha ish ham siz qilib yurgan ishingizning partavi bo‘ladi. Men qabul qilib ertasiga soat o‘n ikkida u erga etib bordim Xo‘jayin ham bozordan qaytib shabgahning ko‘lanka joyiga ko‘rpacha soldirib o‘tirgan ejkan. Xo‘jayinning oldida cho‘t daftar qalam va dovot bor edi. Men xo‘jayinning ro‘parasida sholchada o‘tirdim. U daftar bilan dovot qalamni mening oldimga surib qo‘ydida ustaxona eshiga qarab : Rajabjon devonabachchalaringga ayt bitta-bitta kelishib hisoblarini eshitishsin, simkorlarini olib ketishsin-deb ovoz berdi. [15] Yana bir e’tiborga arzigulik masala, bu ustaxonada shogirdlar ham mavjud bo‘lib, ular tekinga faoliyat yuritishgan. Ularga haq ajratilmagan.

Aholining va umuman davlatning asosiy daromad manbai yer edi. Aholining aksariyat qismi dehqonchilik orqali kun kechirgan. “Amirlikda dehqonlarning aksariyati nochorlikda kun kechirardi. Chunki yer va yerga ishlov berish vositalari amir va uning amaldorlari qo‘lida edi. Davlat mablag’larni bekorga sarf qilardi. Amir Abdulahad Peterburgga, imperator huzuriga katta sovg’a-salom bilan har yili qatnardi. Shuningdek, u Qrim va Kavkazga borganida qimmatbaho sovg’alarni va saroylarni xarid qilardi. Bu odat ulkan sarf-xarajatlarni talab qilardi va ushbu xarajatlar oddiy aholi yelkasiga og’ir yuk bo‘lib tushardi.

Buxoro amirligida asosiy soliqlarni aholining 90% ga yaqinini tashkil etuvchi dehqonlar to’lardi.” [16]

Amirlik daromadining asosiy qismini dehqonlar to’laydigan soliqlar tashkil qilgan. Soliq undirishda ko‘pinchaadolatsizliklarga yo‘l qo‘yilgan. “Amirlikda azaldan xiroj va zakot asosiy soliqlar bo‘lsa-da, yerdan olinadigan xiroj solig’i miqdori ayrim viloyatlarda hosilning 40-50%iga yetardi. Bu miqdor amirlikning yillik

daromadlarining yarmidan ko'pini tashkil etardi. Bundan tashqari xiroj bilan qatorda kafsan, dorug'ayi muzd, ya'ni xirmonlarni xatga olgani uchun amaldorga qo'shimcha maosh ham undirilardi. Bog'lar va polizlardan olingan daromadlar uchun alohida yig'im-tanobona to'langan." [17]

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi ma'lumotlarga tayanib biz amirlikda iqtisodiy tuzilma o'ziga xos tarzda rivojlanganini ko'ramiz. Oddiy xalqning iqtisodiy bilimlari juda yuqori bo'lmasada, amirlikda yirik savdogarlar tabaqasi mavjud bo'lib, ular nafaqat ichki savdoda balki tashqi savdoda ham o'z o'rniiga ega bo'lgan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilgamo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliшhlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 2017-yil 14-yanvar. T.: "O'zbekiston" 2017
2. Amir Sayyid Olimxon. "Buxoro xalqining xasratlari tarixi" T.: "Fan" 1991. 27-bet
- 3 S.Ayniy, "Esdaliklar" III qism T.: "Toshkent" badiiy adabiyot nashriyoti. 1965. 25-bet
4. S.Ayniy, "Esdaliklar" III qism T.: "Toshkent" badiiy adabiyot nashriyoti. 1965. 49-bet
5. S.Ayniy, "Esdaliklar" III qism T.: "Toshkent" badiiy adabiyot nashriyoti. 1965. 50-bet
6. С.Айний, "Эсдаликлар" III қисм Т.: "Тошкент" бадиий адабиёт нашриёти. 1965. 51-бет
7. С.Айний, "Эсдаликлар" III қисм Т.: "Тошкент" бадиий адабиёт нашриёти. 1965. 76-бет
8. С.Айний, "Эсдаликлар" III қисм Т.: "Тошкент" бадиий адабиёт нашриёти. 1965. 159-бет
9. С.Айний, "Эсдаликлар" III қисм Т.: "Тошкент" бадиий адабиёт нашриёти. 1965. 162-бет
10. S.Tillaboyev A.Zamonov "O'zbekiston tarixi" Umumiyl o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. T.: "Sharq" 2014. 113-bet
- 11 . С.Айний "Қисқача таржимаи ҳолим" Т.: ЎзССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти 1960. 81-82-бетлар
12. С.Айний "Қисқача таржимаи ҳолим" Т.: ЎзССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти 1960. 114-бет.
13. С.Айний, "Эсдаликлар" III қисм Т.: "Тошкент" бадиий адабиёт нашриёти. 1965. 85-86-бетлар
14. С.Айний, "Эсдаликлар" III қисм Т.: "Тошкент" бадиий адабиёт нашриёти. 1965. 114-бет